

CHET TILLARNI O'RGANISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA SAMARALI USULLAR.

Hamidova Mushtariybonu

SamDChTI Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish ingliz tili yo'nalishi 1-bosqich 2401-guruh talabasi.

Hamitova Farangiz

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich 303-guruh talabasi.

Annotatsiya: *Maqolada chet tillarini o'rganishning zamonaviy metodlari va samarali usullari yoritilgan. Kommunikativ yondashuv, raqamli texnologiyalar, gamifikatsiya va aralash o'qitish kabi metodlarning afzalliklari hamda ularning amaliyotdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, muvaffaqiyatli til o'rganish uchun motivatsiya, maqsad qo'yish va muntazamlilikning roli haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Chet tillarni o'rganish, kommunikativ yondashuv, raqamli texnologiyalar, gamifikatsiya, aralash o'qitish, motivatsiya, maqsad qo'yish, muntazamlilik, til kompetensiyasi, immersiya, shaxsiylashtirilgan ta'lim.*

Abstract: *The article highlights modern methods and effective approaches to learning foreign languages. It examines the advantages of methods such as the communicative approach, digital technologies, gamification, and blended learning, as well as their practical significance. Additionally, the role of motivation, goal setting, and consistency in successful language learning is emphasized.*

Keywords: *Learning foreign languages, communicative approach, digital technologies, gamification, blended learning, motivation, goal setting, consistency, language competence, immersion, personalized learning.*

Аннотация: *В статье освещены современные методы и эффективные подходы к изучению иностранных языков. Рассматриваются преимущества таких методов, как коммуникативный подход, цифровые технологии, геймификация и смешанное обучение, а также их практическое применение. Также подчеркивается роль мотивации, постановки целей и регулярности для успешного изучения языка.*

Ключевые слова: *Изучение иностранных языков, коммуникативный подход, цифровые технологии, геймификация, смешанное обучение, мотивация, постановка целей, регулярность, языковая компетенция, погружение, персонализированное обучение.*

KIRISH

Bugungi global davrda chet tillarini bilish shaxsiy va professional rivojlanishning muhim omiliga aylangan. Dunyoning har bir burchagida boshqa millat vakillari bilan muloqot qilish, xorijiy manbalardan bilim olish va xalqaro munosabatlarga qo'shilish imkoniyatlarini til bilimi oshiradi. Shu sababli chet tillarni o'rganish faqatgina zarurat emas, balki hayotiy ehtiyojga aylandi.

XXI asrda ilmiy-texnik taraqqiyot va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi til o'rganish jarayonlarini yengillashtirdi. An'anaviy grammatik yondashuvlar bilan bir qatorda, kommunikativ metodlar, onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali o'rganish mashhur bo'lib bormoqda. Xalqaro ingliz tili, xitoy va arab tillari kabi tillarni bilish ko'plab sohalarda muvaffaqiyatli ishlash va o'qish imkoniyatlarini yaratadi.

Chet tillarni o'rganish jarayonida turli yoshdagi va kasb-hunardagi odamlar o'z oldilariga maqsad qo'yadi. Kimdir xorijiy universitetga o'qishga kirishni xohlaydi, boshqasi esa xalqaro kompaniyada ishlashni maqsad qiladi. Shuningdek, ba'zilar o'z dunyoqarashini kengaytirish, sayohatlarda til to'siqlarini yengib o'tish yoki madaniy aloqalarni rivojlantirish uchun til o'rganishni tanlaydi. Ushbu jarayon faqat o'quv dasturlarini to'g'ri tanlashni emas, balki davomiylilik, intizom va qat'iyatlilikni ham talab qiladi.

Bu maqola chet tillarni o'rganishning ilmiy asoslari, zamonaviy metodlari va samarali usullarini o'rganishga bag'ishlanadi. Unda muvaffaqiyatli til o'rganish uchun eng dolzarb yondashuvlar va ularning afzalliklari haqida batafsil so'z yuritiladi. Shu bilan birga, til o'rganish jarayonidagi asosiy qiyinchiliklar va ularni yengib o'tish yo'llari haqida ham fikr yuritiladi.

Dunyoda "Bir tilni bilgan odam bir insonga, ikki tilni bilgan esa ikki insonga teng" degan mashhur fikr mavjud. Ushbu haqiqatni anglash va chet tillarni o'zlashtirish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish orqali inson o'z salohiyatini yanada kengaytirishi mumkin.

Chet tillarni o'rganish jarayonida zamonaviy yondashuvlar katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu usullar an'anaviy o'qitish uslublaridan farqli ravishda o'rganuvchining ehtiyojlarini, qobiliyatlarini va zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlarini inobatga oladi. Quyida chet tillarni o'rganishda eng ommabop zamonaviy yondashuvlar haqida batafsil ma'lumot beriladi.

1. Kommunikativ yondashuv

Kommunikativ yondashuvning asosiy maqsadi – o'quvchilarni real hayotda tilni ishlatishga o'rgatish. Bunda asosiy e'tibor grammatik qoidalarga emas, balki muloqotga, gapirish va tinglash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Ushbu metod ko'proq amaliy mashqlarni o'z ichiga oladi, masalan:

- Juftlikda yoki guruhlarda muloqot qilish;
- Rol o'yinlari o'tkazish;
- Hayotiy vaziyatlarni aks ettiruvchi topshiriqlar.

Kommunikativ metod o'rganilayotgan tilning madaniyatiga chuqur kirib borishni ham ta'minlaydi, bu esa tilni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu haqda Krashen shunday fikr bildiradi: "Communication is central to language acquisition. It is not enough for the learner to be exposed to the language through formal instruction. The learner needs to engage in real communication, where the language is used for meaningful interaction".²⁷

Afzalliklari:

- O'quvchilarni faol ravishda muloqotga jalb qiladi.
- Tilni haqiqiy hayotiy sharoitlarda qo'llashni o'rgatadi.
- Ishonch va talaffuz qobiliyatlarini rivojlantiradi.

2. Raqamli texnologiyalar yordamida o'qitish

²⁷ Krashen, S. (1981). *Second Language Acquisition and Second Language Learning*. Oxford: Pergamon Press.

Zamonaviy texnologiyalar chet tillarni o'rganish jarayonini yanada qulay, samarali va qiziqarli qilib qo'ydi. Raqamli vositalar, xususan, onlayn platformalar, mobil ilovalar va boshqa texnologik echimlar o'quvchilarning ehtiyojlariga mos ta'limni tashkil qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuvning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Onlayn ta'lim platformalari

Onlayn platformalar, masalan, Duolingo, Babbel, Coursera va Udemy, chet tillarni o'rganish uchun qulay muhit yaratadi. Ular interaktiv mashqlar, grammatik qoidalar va talaffuzni o'rgatuvchi dasturlarni taklif etadi. O'quvchilar istalgan vaqtda va joyda mustaqil ravishda bilim olishi mumkin. Doughty va Long (2003) o'z tadqiqotlarida onlayn o'qitish vositalarining kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishdagi samaradorligini ta'kidlab, texnologiyalar orqali o'quvchilarning o'qituvchidan mustaqillik darajasi oshganligini qayd etishgan.

2. Sun'iy intellekt va virtual yordamchilar

Chatbotlar, ovozli yordamchilar (masalan, Siri yoki Google Assistant) va sun'iy intellekt asosida ishlovchi dasturlar til o'rganishda innovatsion yechimlarni taklif etadi. Ular o'quvchilar bilan interaktiv suhbat o'tkazib, grammatikani to'g'rilash va yangi so'zlarni o'rgatishga qaratilgan.

Sun'iy intellekt yordamida ta'lim berish bo'yicha tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, interaktiv chatbotlar o'quvchilarning yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi (Lu, 2018).

3. Video va audiomateriallar

YouTube, TED Talks, va boshqa video platformalarda mavjud til o'rganish materiallari o'quvchilarga talaffuzni yaxshilash, madaniy kontekstni tushunish va yangi so'zlarni o'zlashtirishda yordam beradi. Shuningdek, audiomateriallar (masalan, podkastlar va audiokitoblar) tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun juda foydalidir.

"Audio va video vositalar o'quvchilarning tinglash qobiliyatlarini oshirishda samarali bo'lib, ular tilni amaliyotda tushunish va qo'llash qobiliyatini mustahkamlaydi" (Vandergrift & Goh, 2012).

3. Gamifikatsiya (O'yinlashgan ta'lim)

Gamifikatsiya — bu ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini kiritish orqali o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qilish usuli. Bu yondashuv o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, bilim olishni quvnoq va ijodiy jarayonga aylantiradi. Gamifikatsiya asosan quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: mukofotlash tizimi, raqobat muhitini yaratish va murakkab topshiriqlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirish.

1. Reyting va mukofot tizimi

O'quvchilar muvaffaqiyatli topshiriqlarni bajargan sari ball yig'ishadi, darajalarni oshirishadi yoki mukofotlar olishadi. Masalan:

Duolingo: foydalanuvchilar mashqlarni bajarib, "XP" ballarini yig'adi va reytingda yuqori o'rinlarni egallashga harakat qilishadi.

Quizlet: foydalanuvchilar turli xil o'yinlar orqali lug'atni mustahkamlab, mukofotlanish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Deterding va boshqalar (2011) gamifikatsiya o'quvchilarning faoliyatini oshirishda samarador usullardan biri ekanligini ta'kidlagan. Reyting va mukofotlar raqobat muhitini yaratib, o'rganish jarayonini rag'batlantiradi.

2. O'yin orqali raqobat muhitini yaratish

Gamifikatsiya raqobatni o'z ichiga olganligi sababli, o'quvchilar orasida bellashuv muhitini kuchaytiradi. Bu esa darslarni monotonlikdan chiqarib, qiziqarli qiladi. "Gamifikatsiya raqobatni oshiradi va o'quvchilarning maqsad sari intilishini kuchaytiradi" (Kim, 2015).

Masalan:

- Juftlik yoki guruhlarda topshiriqlarni bajarish.
- Musobaqalarda ishtirok etish orqali yangi so'zlarni tezroq o'zlashtirish.

3. Motivatsiya va qat'iyatni oshirish

O'yin elementlari, masalan, kvestlar, sirli vazifalar va maqsadlarga erishish uchun qadamlar motivatsiyani oshiradi. Har bir topshiriqning oxirida beriladigan mukofot o'quvchilarni yanada qattiq ishlashga undaydi.

Misol:

- So'z jumboqlarini yechish yoki jumalarni to'g'ri tartibga keltirish.
- Virtual sovg'alar va medallarni yig'ish.

Hamari va boshqalar (2014) gamifikatsiyaning motivatsiyaga ta'sirini tadqiq qilib, o'yin elementlari o'quvchilarda qat'iyatni oshirishini qayd etgan.

4. Texnologiyalar bilan uyg'unlashgan o'yinlashgan ta'lim

Gamifikatsiyaning samaradorligini oshirishda texnologiyalarning roli katta. Mobil ilovalar, onlayn platformalar va interaktiv o'yinlar o'quvchilarga til o'rganish jarayonida yangi imkoniyatlar taqdim etadi. Masalan:

• Kahoot va Quizizz: interaktiv viktorinalar orqali lug'at va grammatikani mustahkamlash.

• Lingvist: algoritmlar yordamida individual qiyinchilik darajasi asosida o'yin shaklidagi mashqlarni taklif etadi.

Prensky (2001) texnologiyalar bilan uyg'unlashgan o'yinlashgan ta'lim o'quvchilarning faol qatnashuvi va qiziqishini ta'minlashini ta'kidlaydi.

Afzalliklari

- O'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.
- Yangi so'zlarni tezroq va samaraliroq o'zlashtirishga yordam beradi.
- O'yin orqali til o'rganish jarayonini ijodiy va qiziqarli qiladi.
- Faoliyat va muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Aralash o'qitish (Blended Learning)

Aralash o'qitish yondashuvi an'anaviy o'qitish usullari va texnologik vositalarni uyg'unlashtirishni o'z ichiga oladi. Bu metodda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligi ostida bilim olish bilan birga, mustaqil ravishda onlayn resurslardan foydalanadilar. Masalan:

- Onlayn videodarslar orqali nazariy bilim olish;
- Darslarda esa olingan bilimlarni amalda qo'llash.

Afzalliklari:

- Teoretik bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi.
- Mustaqil ishlashni rivojlantiradi.
- O'quvchining ehtiyojlariga moslashadi.

5. Immersion (Til muhitiga sho'ng'ish)

Tilni o'rganish jarayonida eng samarali usullardan biri bu til muhitiga tushishdir. Bu yondashuvda o'quvchi tilni kundalik hayotda, til o'rganuvchi jamiyatda yashash orqali o'zlashtiradi. Bu usulda:

- Tilni o'rganilayotgan mamlakatga safar qilish;
- Xorijiy suhbatdoshlardan foydalanish;
- Chetdan kelgan mehmonlar bilan muloqot qilish kabilar qo'llaniladi.

Afzalliklari:

- Tilni tabiiy ravishda va tezroq o'rganish.
- Nutq madaniyati va talaffuzni yaxshilash.
- Muloqotga bo'lgan ishonchni oshirish.

6. O'zlashtirilgan ta'lim (Personalized Learning)

Har bir o'quvchi individual yondashuvni talab qiladi. Ushbu metodda o'quvchining kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, shunga mos ravishda o'qitish strategiyasi ishlab chiqiladi.

1. O'quvchi qaysi qismda qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlash;
2. Xususiy o'qituvchilar yoki shaxsiy kurslardan foydalanish.

Afzalliklari:

- Natijaga yo'naltirilgan o'qitish.
- O'rganish tezligini oshirish.
- Maxsus ehtiyojlarga moslashuvchan yondashuv.

Chet tillarini samarali o'rganish usullari

Til o'rganish jarayonida muvaffaqiyatga erishish uchun maqsadga yo'naltirilgan va muntazam yondashuv muhim. Quyida tilni samarali o'zlashtirishga yordam beradigan asosiy usullar yoritilgan:

1. Maqsadni belgilash

Til o'rganishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qisqa va uzoq muddatli maqsadlar qo'yish zarur.

Misollar:

- ✓ Bir oyda 500 ta yangi so'z yodlash.
- ✓ Bir yil ichida C1 darajasiga erishish.

Afzalliklari: Maqsadlar aniqligi motivatsiyani oshiradi va o'rganish jarayonini nazorat qilishga yordam beradi.

2. Suhbat amaliyoti

Tilni o'rganishda muloqot eng muhim omil hisoblanadi. Real suhbatlar ko'nikmalarni yanada tez rivojlantiradi.

Usullar:

✓ Chet ellik do'stlar bilan yozishish yoki onlayn platformalarda video qo'ng'iroqlar qilish.

✓ Til almashuv dasturlarida qatnashish (masalan, Tandem yoki HelloTalk).

Afzalliklari: Real vaziyatlarda tilni qo'llash qobiliyatini shakllantiradi va talaffuzni yaxshilaydi.

3. Kundalik mashqlar

Muntazamlik tilni samarali o'rganishning asosiy shartidir. Har kuni vaqt ajratib, til mashqlarini bajarish kerak.

Tavsiyalar:

✓ 15-30 daqiqa davomida so'z boyligini oshirish yoki grammatik mashqlar bajarish.

✓ Kunlik kundalik yozish yoki o'qish.

✓ Afzalliklari: Miyaning o'rganish jarayonini tezlashtiradi va materialni mustahkamlaydi.

Xulosa. Zamonaviy yondashuvlar nafaqat til o'rganish jarayonini qulaylashtiradi, balki o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, bu esa til o'rganishni nafaqat zarurat, balki qiziqarli va hayotiy ehtiyojga aylantiradi. Har bir o'quvchi o'z ehtiyojlariga mos metodlarni tanlab, ularni muntazam qo'llash orqali samarali natijalarga erishishi mumkin. Kelajakda texnologik taraqqiyot til o'rganish jarayonini yanada tezlashtirib, global integratsiyani kuchaytiradi. Shu orqali til o'rganish nafaqat individual ehtiyojlarni qondirish, balki dunyo hamjamiyati bilan muloqotni mustahkamlash va yangi imkoniyatlarni ochishning kalitiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Krashen, S. (1981). *Second Language Acquisition and Second Language Learning*.
2. Ebbinghaus, H. (1885). *Memory: A Contribution to Experimental Psychology*.
3. Mirzaeva, M. (2021). *Zamonaviy o'qitish metodlari*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
4. Abdullaev, F. (2020). *Chet tilini o'rganishda kommunikativ yondashuv*. Toshkent: Akademiya nashri.
5. Baxtiyorov, K. (2019). Gamifikatsiya va uning ta'limda qo'llanilishi. *Journal of Pedagogical Science*, 8(2), 123-130.
6. Ismoilov, Sh. (2022). *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: Ma'naviyat va ma'rifat.
7. Xo'jaeva, M. (2020). Ingliz tili ta'limida o'quvchi faoliyatini rag'batlantirish metodlari. *Journal of Language and Linguistics Studies*, 7(4), 45-58.